

E'tidolg'a¹ da'vat

Har kimga ma'lumdirki hozir siyosiy bir zamondir. Bizning Turkistonda va ul qatori avom xalq bir niche fikr va jamoaga bo'lung'ondir. Chunonchi: Taraqqiyparvarlar firqasi, Sho'royi Islom firqasi va Mehnatkash firqasi.

Bu firqalardan ba'zisi ba'zan ifrotg'a² va ba'zan tafritg'a³ ketadir va ba'zan bir-birini dushman jonidek hisoblaydirki, munga taajjub aytaman, na uchun bular ittifoq va i'tilof⁴ ila ish ko'rmaydurlar va bir-birovlarig'a dushmanliqda bo'ladurlar. Holbuki qilaturg'on ma'lum bir ishlar yo'qdir.

Oxirgi vaqtlarda Mirbadaluf ila Rasuluf janoblari hibsb bo'lindilarki, bul ham shul bir-birovig'a badgumonliqning natijasidir. Manga qolsa, yuqoridag'i uch firqa bir-birovlari ila yarashib ish qilsalar yaxshi edi.

Zotan man shul ittifoq tarafdorimanki, 1917 yil may oyidan beri ikki tarafni birlashtirmoq harakatidaman va ushbu harakatimg'a boshqa e'tidolparvarlar ham yordam beradilar va bul e'tidolparvarlikdan bir niche yaxshi natijalar ham xalq uchun va ham taraqiyn uchun paydo bo'lg'on edi.

Ammo oxirgi vaqtlar Samarqandda yana ba'zi tortishmalarning asari ko'rinmoqg'a boshladiki, bul xalq uchun yaxshi emasdir. Hozirda Sho'royi Islom jamiyati o'ng tarafni, Mehnatkashlar jamiyati so'l tarafni tashkil etib, Taraqqiyparvarlar firqasi o'rtag'a qolib, ikki tarafdandan ham qisilmoqg'a boshladi.

Zotan ip tortilaversa, o'rtasidan uzular. Agarda Sho'royi Islom ila Mehnatkash firqasi tortishaversa, zarbasi markaz va e'tidolchi bo'lg'on Taraqqiyparvar fiqasig'a tushaturg'ong'a o'xshaydir. Chunonchi boshlab tarbiyani taraqqiyparvarlardan bo'lg'on Mirbadaluf ila Rasuluf yibdilar.

Xalq og'zidagi ovozlarg'a qarag'onda taraqqiyparvarlardan ba'zisi uchun (zarba) hozirlanadur emish va ham bir niche kishini butun dunyodan yo'q qiladurg'on "mahv zarbasi", ya'ni (o'lim) va ul zarba uchun nishonlanganlardan birisi man ekanman.

Subhonolloh qanday voqea! May oyida bizg'a o'lum va'dasi so'l tarafdandan kelur edi. Hozirgi ovozag'a qaraganda, o'ng tarafdandan; mana jamiyatimizning holi va ixtilofi!

Taajubi shulki, bolshivuklarni muxtoriyatchilar ila ittihadg'a da'vat etib "voyennuy sobraniya" g'a nutq so'zlaganimda, mani ulamo va aksilharakat tarafdori dedilar. O'ng firqa bo'lsa, bizni rabuchi ham bolshuvik tarafdoridir. O'zim

¹ E'tidol – tenglik, adolat.

² Ifrot – biror narsadan haddidan oshish, chuqur ketish.

³ Tafrit – biror ishda sovuqqonlik, beparvolik qilish.

⁴ I'tilof – birlashuv

aytamanki – man taraqqiy va e'tidolparvardirman – va bul so'zni har yerda so'ylayman va qo'limdan kelgancha e'tidoldan ojralmasman.

Samarqand mehnatkash firqasining munosabati bolshivuklar iladir. Shunida bilmoq kerakki, har bir firqaning o'zi javobgar bo'lsa kerak, muni har kimning o'zi bilishi lozimdir.

Man o'zim e'tidolchi bo'lg'anim uchun har kimni e'tidolg'a da'vat etaman, zotan e'tidolning yaxshilig'i (xayrul umuru avsatuh) ⁵ ila sobitdir. Shahrimizdagi va butun Turkistondagi firqalarg'a ojizona arz etardukki, xoh muxtoriyatchi bo'lsun, va xoh Sho'royi Islom jamiyati bo'lsin, Taraqqiyparvar va yo Mehnatkash bo'lsin, bolshuvik bo'lsun, e'tidol yo'lini tutsalar edi. Har bir jamiyat o'z muddaosidan bir ozini boshqa jamiyat ila ittifoq etmoq yo'lig'a fido qilsa edi, toki shul fidokorliq yo'lida jamiyatlarning xohish aslilarikim xaloyiqning osoyishlig'idir, vuqug'a ⁶ kelsa edi.

Xudoyi qilmasin, agarda ifrot va tafritchilardek bir bo'lavg'a dushman ko'zi ila qarab ish qilinsa, muning oqibati o'zimiz, ya'ni xaloyiq uchun yomon bo'lur, binobarin takror rijo ⁷ etamanki, ey birodarlar, ey o'nglar, ey so'llar, ey taraqqiyparvarlar, xohish va muddaolaringizdan bir ozini bir-biringizni xotiri uchun baxshida etingiz, fidoiylik qilingiz, toki orag'a fasod tushmasun.

Albatta e'tidolg'a da'vat etganmiz ifrotchi va tafritchidagi kishilarg'a maqul bo'lmaydur. Va bizning bu yozg'onlarimizni har navi ta'vil ⁸ ila har tarafa sudraydurg'onlar bo'lishi ma'lumdur. Ammo so'zlarimiz (haqiqat)lig'i uchun yana o'z hukmida qolur. Va so'ngradan har kimning ma'lumi va yaqini bo'lur.

Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy
“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 14 g'anvar.

⁵ Hamma narsaning o'rtasi yaxshidir.

⁶ Vuqu – bajarilsa, sodir bo'lsa.

⁷ Rijo – iltimos.

⁸ Ta'vil – sharhlash.